

**KO‘HNA VA BOQIY BUXORODAGI ZAMONBOBO YODGORLIGINING O‘RGANILISHI****To‘xtavaliyeva Gulobar**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti

Markaziy Osiyo xalqlar tarixi va etnologiyasi

kafedra 2- kurs fors-ingliz talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent **R.Alimova**

Buxoro o‘zining betakrorligi va tarixiyliigi bilan boshqa manzilgohlardan ajralib turadi. Buxoro vohasi aholisi qadimdan o‘troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘illanib kelishgan, bu hududda shaharsozlik rivojlangan, madaniyaniyat o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetgan. Aholining katta qismi daryo bo‘yida istiqomat qilgan. Ayniqsa, Zarafshon daryosining hayotbaxsh o‘rni nihoyatda kattadir. Qadimgi Misr “Nil hadyasi” bo‘lganidek, Buxoro vohasi ham “Zarafshon daryosi”ning in‘omi desak mubolag‘a bo‘lmaydi<sup>1</sup>. Bronza davriga oid Zamonbobo kompleksi S.P.Tolstov, Yaxyo G‘ulomov, A.Asqarov tomonidan chuqur arxeologik o‘rganish ishlari olib borilib, Buxoro vohasining janubiy-g‘arbiy qismida ibtidoiy madaniyat mavjudligi aniqlandi. Zamonbobo Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida joylashgan. Bronza davriga oid turar-joy mavzesi mavjud bo‘lib Ahmadali Asqarov o‘rgandi. Bu hududdan sopol buyumlari, ov qurollari, jez buyumlari va taqinchoqlar kabi topilmalar topildi. Zamonbobo Zarafshon daryosining quyi havzasida topilgan chorvachilik va motiga dehqonchiligi bilan shug‘illangan qabilalarning yodgorligi hisoblanadi. “Motiga”-“ketmon” degani. Yaxyo G‘ulomov 1950-yilda bu madaniyatga oid qabristonni topdi. Qabristonda 1951-1960-yillarda arxeologik taqdiqotlar olib bordi, natijasida bronza davriga oid 40 dan ortiq qabr ochgan. Mozorlar tuzilishi jihatidan ayvonli laxat shaklida bo‘lgan. Zamonbobo qabristonidan yaproqsimon shaklda ishlangan tosh paykonlar, osti yassi va tuxumsimon bilakuzuklar, qimmatbaho toshlardan yasalgan juda ko‘p munchoqlar, jez oyna, igna, bigiz, terrakota haykalcha, namozgoh madaniyatiga tegishli sopol parchalari va boshqa narsalar topilgan<sup>2</sup>. Yaxyo G‘ulomovning Xorazmda S.P.Tolstov bilan hamkorlikda olib borgan ko‘p yillik arxeologik taqdiqotlaridan to‘plangan ulkan tajribasi, qo‘l kelgan edi. Qabrlardagi taqir tuproq orasidan favqulotda topib olingan kamon o‘qining toshdan yasalgan paykoni bu nodir obidaning kashfiyotiga turtki bo‘ldi. Chunki Zamonbobo ko‘li sohilida joylashgan bu qadimgi qabristonning ko‘zga tashlanadigan birorta ham belgisi bo‘lmagan, usti biroz qumlik bilan qoplangan tekislikdan iborat edi. Bizning davrimizga qadar qabrlarning faqat ostki lahad qismlarigina saqlanib, ularning atrofi ham tekislanib umuman bilinmay ketgan. Qabrlarning supa va ustki gumbaz qismlari arslar davomida tuproq eroziyasi oqibatida yemirilib, ularni shamol o‘zi bilan uchirib olib ketgan. Qazib olingan 46 ta qabr qoldiqlaridan 8 tasida juft, 28 tasi esa yakka holda dafn etilgan jasad skeletlari deb qayd etildi. Hatto ikkita qabrda kattalar yonniga yosh bola jasadi ko‘milgani aniqlandi. Saqlanib qolgan skeletlarning holatiga qaraganda jasadlarning deyarli hammasi o‘ng yoki chap yoni bilan yonboshlatib dafn qilingan<sup>3</sup>. Bu yodgorlikni Yaxyo G‘ulomovdan keyin, A. Asqarov (1961,1964) arxeologik qazish ishlari olib borgan. Qabilalar yarim yerto‘lalarda yashaganlar. Yerto‘la o‘tov shaklida, ustunlari chuqurchalarga o‘rnatilgan, usti qamish bilan yopilgan va somonli loy bilan

<sup>1</sup> Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro-Toshkent:Fan,1991.B.9

<sup>2</sup> Egamberdiyeva .Arxeologiya-Toshkent 2011,B.73

<sup>3</sup> Muhammadjonov A.Qadimgi Buxoro. Toshkent: Fan,1991. B.23

suvalgan. Qabrda murdalar yakka, juft, ayrim holda uchradan (erkak, ayol, bola) yonboshlatib ko‘milgan. Qazilmalarda sopolsiniqlari, chaqmoqtoshlardan ishlangan qurollar – pichoqsimon tosh parchalari, surma toshlar, jez oyna, pichoq, kurakchalar, lazurit, aqiq, feruza, serdolik, jilvir toshdan ishlangan munchoqlar, hattoki oltin marjonlar ham topilgan. Sopol idishlar naqshsiz bo‘lib asosan, qo‘lda, charxda yasalgan. Ularning barchasi yupqa, jilodor, ba‘zilar qizil angob bilan bo‘yalgan. Chaqmoqtoshlardan ishlangan qadama o‘roqlar, yorg‘uchoq bo‘laklari, hovoncha dastalar va ko‘mirga aylangan bug‘doy, arpa donlari bundan tashqari sigir, qo‘y, echki suyaklarini topilishi bu davrda qabilalar ibtidoiy dehqonchilik va o‘troq chorvachilik bilan shug‘illanganligidan dalolat beradi<sup>4</sup>. Bu hududdan topilgan turar joy yarim yerto‘la shakldagi kattagina yengil chayladan iborat. Chaylaning uzunligi 23,5 m, kengligi 9 m. Bu turarjoyning umumiy maydoni 170 kv.m. bo‘lib, unda taxminan 60-65 kishi istiqomat qilgan. Chaylaning ichi va tashqarisida bir nechta o‘choq o‘rinlari, xo‘jalik o‘ralari ko‘zga tashlanadi. Turar joy hovlisidan xonaki kulolchilik xumdonlari topilgan, uning diametri 90 smli bu xumdon noxsimon shaklda yasaliq, o‘rtasida loy ustuncha, tepasi gumbazli, tashqarisi somonli loy bilan suvalgan<sup>5</sup>. Bu yodgorliklar kompleksi o‘ziga xos xarakterli belgilariga ko‘ra, tarix faniga “Zamonbobo madaniyati” nomi bilan kirdi. A.Asqarovning ta’kidlashicha, Zamonbobo madaniyati janubning o‘troq dehqonchilik jamoalari ta’sirida shakllangan, u xonaki chorvachilik va motiga (ketmoncha) dehqonchiligi bilan kun kechirgan. Keyinchalik, Surxondaryo vohasida qadimgi o‘troq dehqonchilikning “Sopolli madaniyati” yodgorliklarining so‘ngi bosqichiga mansub qablardan xuddi Zamonbobo topilmalariga aynan o‘xshagan sopol idishlar va jezdani yasalgan ashyolar qayd etiladi. Bu ikki xil madaniyat izlarining birgalikda uchrashi, shubhasiz, Sopolli madaniyatiga mansub qadimgi o‘troq dehqonlar aholisining so‘ngi vorislari zamonboboliklar bilan bir davrda yonma-yon yashaganliklaridan hamda ular bir-birlari bilan yaqin muloqotda bo‘lganidan, qolaversa, qon-qarindosh bo‘lib ketganidan dalolat beradi. Shunday qilib, milloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida, ya’ni hozirgi kundan qariyb 3-3,5 ming yil muqaddam Buxoro vohasining daryo etaklarida endigina ibtidoiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo‘lib, ular ayrim yerto‘la va chaylalardan iborat turar joylardan tashkil topgan. Bu ilk davrlarda qishloqlardagi xonaki hunarmandchilikning kulolchilik, misgarlik, sangtaroshlik, to‘qimachilik, kabi turlari mavjud bo‘lgan bo‘lsada, bu sohalar bu davrga qadar baribir hunarmandchilikning mustaqil sohasi darajasiga yetib bormagan<sup>6</sup>. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zamonbobo manzilgohida ham qadimdan aholi istiqomat qilgani ma’lum. Bu yerda yashagan aholi madaniyati anchagina rivojlangan, bu davrga kelib matriarxat o‘rniga patriarxat - ota urug‘i tomonidan qarindoshlik belgilanadigan bo‘ldi. Oilada otaning mavqei oshdi. Xo‘jalik ishlarining katta qismi erkaklar qilishadigan bo‘ldi. Bu davrga kelib xo‘jalikda “motiga – ketmon” dan foyalaniladi. Iqtisodiyot anchagina o‘sdi. Aholining turmish tarzi sekin-asta o‘zgara boshlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Egamberdiyeva. Arxeologiya- Toshkent 2011, B.73
2. Halim To‘rayev. Buxoro tarixi. Toshkent. 2020\_ B.44,45
3. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. Toshkent: Fan, 1991\_ B.9,23,22,27
4. O‘zMU. Birinchi jild Toshkent, 2000 yil

<sup>4</sup> O‘zME. Birinchi jild Toshkent, 2000 yil

<sup>5</sup> Halim To‘rayev .Buxoro tarixi. Toshkent 2020\_ B.44,45

<sup>6</sup> Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro-Toshkent: Fan.1991,-B22-27